

BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

N.U.Mustafayeva

Doktorant, DSc

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

nilufar.mustafayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pragmatik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida taksonomiyaning tutgan o'rnini tahlil qiladi. Til o'rgatishda faqat grammatik bilim emas, balki muloqotning kontekstual va madaniy jihatlar ham muhim sanaladi. Pragmatik kompetensiya o'quvchilarning tilni to'g'ri va mos vaziyatda ishlatish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida taksonomiya asosidagi metodika orqali o'quvchilarda chuqurroq pragmatik anglashni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Shu asosda, maqola o'qituvchilar uchun nazariy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: taksonomiya, Blum, pragmatika, kommunikativ kompetensiya, til o'rgatish, nutqiy aktlar.

ABSTRACT

This article analyzes the role of taxonomy in the process of developing pragmatic competence. In language teaching, not only grammatical knowledge but also the contextual and cultural aspects of communication are considered important. Pragmatic competence shapes students' ability to use language correctly and appropriately in different situations. The results of the study also show that through methodology based on taxonomy, a deeper understanding of pragmatics can be achieved. Based on this, the article includes both theoretical and practical recommendations for teachers.

Keywords: taxonomy, Blum, pragmatics, communicative competence, language teaching, speech acts.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль таксономии в процессе развития прагматической компетенции. В преподавании языка важны не только грамматические знания, но и контекстуальные и культурные аспекты общения. Прагматическая компетенция формирует способность учащихся правильно и уместно использовать язык в различных ситуациях. Результаты исследования также показывают, что с помощью методики, основанной на

таксономии, можно достичь более глубокого понимания прагматики. На основе этого статья включает теоретические и практические рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: *таксономия, Блум, прагматика, коммуникативная компетенция, преподавание языка, речевые акты.*

KIRISH

Ingliz tilini o'rgatishda tilning pragmatik jihatlari ajralmas ahamiyatga ega. Pragmatik kompetensiya nafaqat til bilimlari, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini xam o'z ichiga oladi. O'qituvchilar pragmatik ko'nikmalarni o'rgatishda o'quvchilarga tilni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda ishlata olish imkoniyatini yaratish jarayonida samarali o'qitish metodlari va yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Chunki o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashish barobarida madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olib, aniq va samarali muloqot qilishni xam o'rganishlari kerak. Taksonomiya, ayniqsa, Bloom taksonomiyasi, o'qituvchilarga o'quvchilarda yuqori darajadagi pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun mukammal vosita hisoblanadi. Taksonomiyaning yordami bilan o'qituvchilar darslarni maqsadli ravishda rejalashtirib, o'quvchilarning fikrlash va muloqot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishlari mumkin.

MUHOKAMA.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda taksonomiya muhim o'rin tutishi borasida ko'plab olimlar ilmiy ishlarida o'z fikrlarini bildirgan. Ingliz olimi A.Tenis pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda taksonomiyaning o'rni borasida gapirar ekan unda bu yondashuvning o'quvchilarning tilni kontekstual va madaniy jihatdan to'g'ri ishlatishiga yordam berishini ta'kidlaydi[9]. K. Paluanova pragmatik kompetensiyani baholashda hozirgi o'lchov vositalarining samaradorligini o'rgansa[5], Sh.A.Xodiyeva taksonomiya yordamida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchilarning metodik yondashuvlarining ahamiyatini yoritib, ularning o'quvchilarga ijtimoiy va madaniy normalarni to'g'ri tushunishda yordam berishiga urg'u beradi[6]. M.Tursunova pragmatik kompetensiyani postmethod pedagogikasi orqali rivojlantirishning samaradorligini ko'rsatadi va taksonomiyalarning til o'rganishda yondashuvlarni tizimli ravishda tashkil qilishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi[10]. E.Sadikov O'zbekistonda pragmatik kompetensiyani taksonomiyalar orqali o'rgatish metodikasining samaradorligini o'rganib, bu yondashuvning o'quvchilarning ijtimoiy anglash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi[7].

Rus olimlarining fikrlariga ko'ra, V.Shchegolev taksonomiyaning til o'rganishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidladi, chunki bu tizimli yondashuv o'quvchilarning til malakalarini sinchkovlik bilan baholash imkonini beradi[8]. A.S.Ivanova taksonomiya yordamida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda metodik yondashuvlarni yaxshilash zarurligini ko'rsatadi va bu o'quvchilarga o'zgaruvchan til muhiti sharoitida muvaffaqiyatli muloqot qilishga yordam beradi[2]. N.S.Novikova pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda taksonomiyaning ahamiyatini ko'rsatadi va o'quvchilarning tilni to'g'ri ishlatish uchun bu metodlarni qanday yaxshilash kerakligini muhokama qiladi[4]. V.Frolov pragmatik kompetensiyani o'rgatishda taksonomiyaning yondashuvlarni tartibga solishda va o'quvchilarga madaniy nuqtai nazardan tushunarli va samarali yondashuvlarni taqdim etishda muhimligini ta'kidladi[1].

NATIJA:

Moghaddam, Murray va Mirfendereski pragmatik kompetensiyaning rivojlanishida taksonomiyalarning o'qituvchilarga qanday yordam berishini o'rganib, bu yondashuvning o'quvchilarning pragmatik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan[3]. Ularning tadqiqotiga ko'ra, taksonomiya, ya'ni bilimlarni tartibga solish va o'rganish jarayonini tizimli tarzda tashkil etish o'qituvchilarga o'quvchilarning pragmatik kompetensiyalarini yanada samarali tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Taksonomiya yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning tilni kontekstual jihatdan ishlatishiga e'tibor qaratib, turli vaziyatlarda pragmatik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin. Shu jixatdan biz tadqiqot ishimizda o'qituvchi o'quvchilarga ijtimoiy interaktsiya va nutq aktlarini yaxshiroq tushunish uchun quyidagi taksonomik yondashuvni qo'llashlari mumkinligini:

Bilish (Knowledge): O'quvchilar pragmatik kompetensiyani tushunishda asosiy tushunchalarni o'rganishlari kerak. Masalan, o'qituvchi "etiket" va "muomala" kabi ijtimoiy nutq aktlarining tushunchalarini talabalarga o'rgatadi.

Tushunish (Comprehension): O'quvchilar o'rgangan tushunchalarni o'zaro muloqotda ishlata olishlari kerak. O'qituvchi shaxsiy tajriba yoki turli madaniy kontekstlarda etiket qoidalarini qanday ishlatish haqida misollar keltirishi mumkin.

Qo'llash (Application): O'quvchilar o'rgangan pragmatik ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llashlari kerak. Misol uchun, o'qituvchi o'quvchilardan turli madaniyatlarda so'zlashuvlar qanday farqlanishi mumkinligini ko'rsatish uchun roli o'ynash (role-play) mashqlarini o'tkazishi mumkin. Bunda o'quvchilar o'zaro so'zlashuvlarni o'rganishadi, masalan, biror bir vaziyatda qanday murojaat qilish yoki rahmat aytish kerakligini ko'rsatishadi.

Tahlil (Analysis): O'quvchilar o'rgangan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash va tahlil qilishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilarga tilning madaniy kontekstini tahlil qilishni va boshqacha madaniyatlarda qanday qilib turli til normalari ishlatilishini ko'rsatishni talab qiladi. Masalan, ingliz tilida rasmiy va norasmiy nutq axtarlari qanday farqlanadi?

Sintetik (Synthesis): O'quvchilar o'rgangan bilimlarini yangi vaziyatlar uchun qo'llab, ular yordamida muloqot qilishda yangi strategiyalar ishlab chiqishlari kerak. Misol uchun, o'quvchilar turli madaniy kontekstlarga mos ravishda o'zaro kommunikatsiya usullarini ishlab chiqishlari mumkin. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarni turli situatsiyalarda qanday qilib o'z nutqini qurishni va unga mos javob berishni o'rgatishi kerak.

Baholash (Evaluation): O'quvchilar o'zlarining va boshqalarining pragmatik kompetensiyasini baholashni o'rganishlari kerakligini isbotladik. O'qituvchi o'quvchilarga til muhitida qanday qilib turli situatsiyalarga mos javoblar berish zarurligini va nutqning ijtimoiy normalariga mosligini o'rgatishi kerak. Bunday yondashuvlar o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarini o'rgatishda samarali bo'ladi.

Bu jarayonda taksonomiya, o'qituvchilarga o'quvchilarning pragmatik ko'nikmalarini rivojlantirishda tizimli yondashuvlarni taqdim etadi, bunda o'quvchilarga tilni faqat grammatik jihatdan to'g'ri ishlatishni o'rgatish emas, balki ularni madaniy va kontekstual jihatdan ham samarali ishlatishni o'rgatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, taksonomik yondashuv o'qituvchilarga pragmatik kompetensiyani tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchilarda madaniy va ijtimoiy kontekstga mos muloqot qilish ko'nikmalari ancha oshgani kuzatildi. Role-play va vaziyatli mashqlar orqali talabalarning real muloqotdagi faol ishtiroki kuchaydi. Taksonomiyaga asoslangan dars rejalari pragmatik kompetensiyani bosqichma-bosqich egallashni yengillashtirdi. Shuningdek, baholash mezonlari ham o'quvchilarning rivojlanishini aniqlashda aniqroq ko'rsatkichlarni taqdim etdi.

XULOSA

Taksonomiyaning pragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi roli o'qituvchilarga tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. O'quvchilarning tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda ham samarali ishlatishlari uchun taksonomik yondashuvlar zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday yondashuv o'quvchilarning til malakalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, pragmatik kompetensiyani o'rgatish uchun taksonomiyalar pedagogik jarayonni yanada samarali va aniq boshqarishga yordam beradi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. Frolov, V. From saying it right to doing it right: A model of pragmatic competence development. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 7, – 2023, 167–171pp.
2. Ivanova, A. S., & Soboleva, N. I. Realization of communicative pragmatic model of teaching in the textbook for foreign students. *Polylinguality and Transcultural Practices*, 1(1). – 2010, 19–23pp.
3. Moghaddam, M. M., Murray, N., & Mirfendereski, Y. Pragmatic competence as a regulator of foreign language speaking proficiency. *Porta Linguarum: An International Journal of Foreign Language Teaching and Learning*, 33, 163 –2020. 182p.
4. Novikova, N. S., & Budiltseva, M. B. Standards of speaking, speech etiquette, and formation of communicative competence. *Polylinguality and Transcultural Practices*, 4(4). –2013, 832p
5. Paluanova, K. Pragmatic dimensions in language learning. *EPRA International Journal of Research & Development*, 8(11). – 2023, 342p.
6. Shaxnoza Abdullayevna Xodiyeva. Integrating pragmatic competence into English language classes. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6). – 2022, 1441–1444pp.
7. Sadikov, E. Teaching pragmatic competencies as a methodical problem in Uzbekistan. *Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education*, 2(10). – 2024, 449–454pp.
8. Shchegolev, V. Pragmatic dimensions in language learning. *EPRA International Journal of Research & Development*, 8(11). 2023, 764p
9. Tenis, A. The role of taxonomy in developing pragmatic competence. *Journal of Language Education*, 14(3), – 2024, 45–58pp.
10. Tursunova, M. Developing pragmatic competence of Uzbek ESL learners through postmethod pedagogy. *News of the NUUz*, 1(1.8.1). – 2024, 191–194pp.